ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O'ZLASHMA SO'ZLARGA MUNOSABAT MASALASI

Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich,
Namangan davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Tildan tilga so'z o'zlashishi tilning ijtimoiy va o'ziga xos qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. "Tilning (nutqning) sofligi uchun kurashni umuman o'zlashtirishlarga qarshi emas, balki o'zga til leksemasini nokerak holda ishlatishga, o'zga til hodisalaridan befarq foydalanish hollariga qarshi olib borish kerak[1]" bo'ladi.

O'zlashma so'zlar leksikani sotsiolingvistik tizim sifatida shakllantirishda beminnat material vazifasini bajarib beradi. Chet tilidan so'z o'zlashtirish barcha ijtimoiy va tarixiy omillar (o'zlashtirish vaqti va shart-sharoiti, o'zlashgan so'zlarning semantik xususiyatlari va funksiyalari) ta'sirida amalga oshadi. Bunda tejamkorlik va asimmetriya hodisalarining ham o'z o'rni bor.

Tilning o'z ichki qonuniyatlari mavjud bo'lib, u lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liq. Jumladan, tilda yangi so'z yasalishi va so'z o'zlashtirish muayyan ma'noda zid hodisalar bo'lishiga qaramay, ular bir-birini inkor eta olmaydigan va yonma-yon hodisalardir. Mazkur hodisalar til taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida faollashib, almashib boradi. Bizningcha, tilga chet tilidagi so'zlarning kirib kelishini butunlay to'xtatib qo'yish til va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga zid. Bu jarayonlarni tilning yashashga bo'lgan intilishi sifatida ham baholash mumkin. Biroq chet tilidagi so'zlarning ko'plab kirib kelishi ham bir qancha xavfli vaziyatlarga olib keladi. Bu jarayon hozirgi davrda keskin faollashganligi bilan ajralib turadi. Bu tilshunoslardan ijtimoiy hayotga yaqinroq ish tutishni, jamiyatdagi o'zgarishlarning tilga ta'sirini tez va oqilona belgilab beradigan soha – sotsiolingvistikaga e'tibor berishni ham talab qiladi.

Til masalasi mazkur holatda mafkuraviy, siyosiy muammo ham bo'lib, millat ruhiyati, taqdiri bilan bog'lanib, chatishib ketadi. Shundan kelib chiqsak, tilshunoslar zimmasida og'ir mas'uliyat ham turadi.

Til lug'at qatlamini tozalash, grammatik va fonetik qoidalarni me'yorlashtirish masalasi deyarli har bir millatda kuzatiladi, ko'pincha siyosiy hodisa sifatida hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ayniqsa, Yaponiya[2], Isroil[3], Eron[4], Iordaniya[5], Turkiya[6] davlatlari hukumati o'z vaqtida tilni globalizatsiya sharoitida qayta tiklash, alifbo islohoti, lug'atlar yaratishni tilshunoslar oldiga vazifa qilib qo'yganlar.

Yevropada tilni "tozalash" masalasi kun tartibiga juda erta qo'yilgan. Jumladan, 1582-yil Florensiyada accademia crusca (Kepak akademiyasi – *tilni un kabi elaklab kepakdan tozalash* ma'nosida) tashkil etilgan bo'lib, uning a'zolari oldiga adabiy tilni barcha "keraksiz narsalar"dan tozalashdek lingvistik vazifa qo'yilgan edi. Shu kabi Yevropada barcha jabhalarda "tilni himoya qilish" muammosi kelib chiqdi. Bu muammoni hal etishda lug'atlar yaratish birinchi o'rindagi yechimga aylandi[7].

O'zlashma so'zlar bilan bog'liq bunday vaziyat Rossiyada XIX asr boshlarida vujudga kelgan edi. Shishkovchilar va karamzinchilar, asr o'rtalarida slavyanofillar va g'arbchilar chet tilidan so'z olish masalasida qizg'in bahslashganlar. Fransuz revolyutsiyasining Rossiyaga ta'siridan qo'rqqan Akademiya prezidenti admiral Shishkov *respublika, revolyutsiya* kabi "xavfli" so'zlarga, hatto *galosh, billiard, fortepiano* (taklif qilingan muqobillar – *mokrostup, sharo-*

[1] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B.111.

[2] Triche M.Y. Kokugo and the "Nation" in Meije-era Japan: Language standardization, ideology, and national identity. Master degree Dissertation Thesis – Southern California University, 2012. – 95 p.

[3] Nahir M. Language academies, Language planning, and the case of Hebrew – University of Pittsburgh, 1973. –324 p.

[4] Afrahi M. Language Policy: Iran. https://pdfslide.us/education/language-policy-in-iran.html?page=11

[5] Bataineh M.T. Terminology planning: the contribution of the Jordan academy of Arabic, with special reference to medical terminology: Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements of the Degree of Doctor of Philosophy – UK: University of Salford, June, 2011. – 309 p.

[6] Aytürk İ. The First Episode of Language Reform in Republican Turkey: The Language Council from 1926 to 1931». Journal of the Royal Asiatic Society, 2008, 18 (3): 278–283. doi:10.1017/S1356186308008511

[7] Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. – М., 1989. – С.11.

kat, tixogrom) kabi oddiy so‘zlarga “hujum” uyushtiradi. V.G.Belinskiy o‘zining bir qancha maqolalarida («Взгляд на русскую литературу 1847 года») tilga bunday yondashish, xalqni majburlash noto‘g‘ri ekanligini aytib o‘tadi, shu bilan birga so‘z o‘zlashtirishda hushyor bo‘lishni uqtiradi: “Teng kuchli ruscha so‘z turganda, chet tildagi so‘zni qo‘llash sog‘lom aql va sog‘lom didni haqorat qilish demakdir[1]”. Kerak-nokerak so‘zlarning to‘dalab olinishi rus tilida “fransuz-nijegorod jargoni”, “amerikan-rostov slengi” kabi adabiy til uchun muqobil hodisalarni yuzaga chiqargan.

Yaponiyada o‘zlashma so‘zlar masalasi yapon iyerogliflarini isloh qilish bilan bog‘lanib ketadi. Bu Ikkinchi jahon urushi vaqtida ittifoqchilarning yaponlar bilan rasmiy axborot almashinuvi vaqtidagi muammolar bilan bog‘lansa-da, chet so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga qaratilgan yozuv tizimi g‘oyasi 1900-yillarda paydo bo‘lib, 1920-yillarda rasmiy muhokamalar boshlangan edi[2]. XX asr boshlarida Yapon Til Konsulligi ming yillar davomida qo‘llanib kelayotgan milliy hentaygana yozuvi hamda imlosini isloh qilib, kundalik hayotda faol qo‘llanadigan 1962 ta iyeroglifni tasdiqladi. Qayd etish joizki, Yaponiyada yozuv islohotlari mamlakatning sanoat va madaniyat jihatdan tez va barqaror yuksalishiga sabab bo‘lgan omillardan hisoblanadi.

Isroilda qadimiy ivrit alifbosini tiklash g‘oyasi diniy va milliy xarakterga ega bo‘lgan. “Iudauzmning muqaddas tili”ni tiklash o‘ziga xos jarayon bo‘lib, unda birorta tabiiy so‘zlashuvchi inson bo‘lmagan. Shuning uchun islohotlar ikki jabhada kechgan: ivrit adabiy yozma tilini tiklash hamda jonli og‘zaki tilni tiklash. Yozma til dastlabki bosqichlarda (XX asr boshlarida) Yevropa shaharlarida qo‘llangan bo‘lsa, og‘zaki adabiy til Falastinda mavjud bo‘lgan. Yana bir qiziq jihati – ivrit tilini tiklash harakati dunyoviy va diniy yo‘nalishlarda o‘zaro alohida tarzda kechgan[3]. Shu vaqtgacha qo‘llab kelingan yidish tili so‘zlashuvchilari mazkur islohotlarga qarshi turishgan, jarayon yidish tili jargon sifatida tasniflanishi bilan yakunlangan[4].

Eron davlatining til borasidagi islohotlari ham qiziq kechgan. Konstitutsiyada fors tili davlat tili, arab tili esa din tili deya e’tirof etilgan[5]. XX asr boshlarida Qojarlar sulolasi davrida Eronning bir tilli davlat ekanligi mustahkamlab qo‘yildi va hozirga qadar ham rasmiy hujjatlar faqat fors tilida yuritilib, boshqa tillarga tarjima qilinishi majburiy emas. Til siyosati 1935-yilda tashkil etilgan Fors tili va adabiyoti akademiyasi tavsiyalariga ko‘ra amalga oshirib boriladi.

Turk Dil Kurumi Turkiya Respublikasida til bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning bosh omillaridan biri bo‘lib, jumladan, 2011-yilda nashr etilgan Turk lug‘ati mazkur tadqiqotlarning natijasi sifatida yuzaga keldi. Lug‘atni tadqiq etgan Mehmet Alver turk tiliga o‘zlashmalarning kirib kelishi mamlakatning boshqa qo‘shnilar bilan munosabatlariga uzviy aloqadorligini qayd etadi[6]. Jumladan, jahon tarixining oxirgi bir asri davomida fransuz, nemis tillaridan olingan leksik qatlam katta salmoqqa ega. Muallif adabiyotshunoslikka oid terminlar safida arab, tilshunoslik va pedagogikaga oid terminlar sirasida fransuz tilining ta’siri kuchli ekanini yozadi. Fransuz tilining bu kabi sezilarli ta’siri boshqa turkiy tillarda uchramaydi.

Arab tilshunosligidagi bunday jarayonlar XX asr boshlarida Usmonli Turk hukmronligi davrida bosilib turgan bo‘lsa, xalifalik tugatilishi bilan 1919-yildan qayta boshlangan. Shu yili Suriyaning Damashq shahrida “Majma’ ul-ilmi-l arabiy”til akademiyasi, 1932-yil Misrda, 1947-yil Iroqda, 1976-yilda Iordaniyada til akademiyalari tashkil etilgan. 1971-yilda bu jamiyatlar birlashib umumarab tili bo‘yicha harakatlarni muvofiqlashtirib borishga kelishib olganlar[7]. Chet so‘zlarni o‘zlashtirishning Tarib metodidan foydalanilgan: dastlab so‘z ot (ism)lashtirilgan, so‘ng uning tarkibidagi tovushlar arab tilidagi tovushlarga almashtirilgan (mas., p -> b/f), ayrim fonetik qismlar orttirish va tushirish amalga oshiriladi. Turli arab davlatlarida til islohotlarining ijtimoiy-siyosiy qo‘llab-quvvatlanishi har xil bo‘lganligi bu boradagi muammolar soni yanada oshiradi. Mamlakatlarning siyosiy yondashuvlari har xilligi terminologiyada ham seziladi. Natijada variantdorlik ko‘paydi, bunga shevalardagi variantlar ham kiradi.

XX asrning 60-yillarida yangi olinmalarning katta oqimi fransuz tilshunoslari oldiga yangi vazifalar qo‘ydi, tilshunoslikning yana bir neologiya sohasi vu-

[1] Горбачевич К.С. Нормы современного русского литературного языка. – М.: Просвещение, 1989. – С. 46.

[2] Vance Timothy J. Review of Kanji Politics: Language Policy and Japanese Script; Literacy and Script Reform in Occupation Japan: Reading between the Lines. Language in Society, 1999. 28 (1): 141–145.

[3] Izre’el Sh. The Emergence of Spoken Israeli Hebrew. Manba: https://www.tau.ac.il/~izreel/publications/Emergence_Hary2003(corr).pdf

[4] Seidman N. A Marriage Made in Heaven – The Sexual Politics of Hebrew and Yiddish. University of California Press, 1997. ISBN 0-520-20193-0.

[5] https://web.archive.org/web/20161027004409/https://en.parliran.ir/eng/en/Constitution

[6] Alver, Mehmet. A Classification Study over Loan Words Used in the Fields of Turkish Literature, Grammar, Linguistics and Pedagogy // Universal Journal of Educational Research 7(4): 1048-1053, 2019

[7] Hamdi S.A. The Impact of Ideology on Lexical Borrowing in Arabic: A Synergy of Corpus Linguistics and CDA. PhD diss. at Educational Linguistics University of New Mexico – USA: Albuquerque, New Mexico December, 2018. – P.29-30.

judga keldi, 1971-yildan boshlab esa aynan neologizmlarni me'yorlashtirishga bag'ishlangan «La Banque des mots» jurnali chop etila boshlandi[1]. Fransuz tilidagi inglizcha o'zlashmalarni tartibga solish va me'yorlashtirish maqsadida soha va hukumat miqyosida islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, o'zlashma terminlarning aniqligi va lo'ndaligi ularning yashab qolish imkoniyatini kuchaytiradi.

Nemis tilshunoslari agar o'zlashma so'zlar oqimini to'xtatib bo'lmas ekan, ularni milliylashtirish va me'yorlashtirish nazariyasini ilgari surmoqdalar[2].

O'zbek tilining zamonaviy tendensiyalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ruscha-baynalmilal hamda yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar miqdori ko'pligiga guvoh bo'lamiz.

Ayrim mutaxassislar sovet voqeligida ruscha-baynalmilal so'zlarning o'zlashuviga turtki bo'lgan ekstralingvistik omil sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

"Birinchidan, bolsheviklar siyosati va sovetlar mafkurasining o'zbek xalqi ongi va dunyoqarashiga singdirilishi tufayli bu tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning qo'llanishi faollashdi.

Ikkinchidan, iqtisodiyot va texnika sohalaridagi yangiliklarning bilvosita sho'ro hokimiyati orqali kirib kelishi o'zbek tilining ilmiy terminologiyasini shakllantiruvchi asosiy vositaga aylantirildi.

Uchinchidan, barcha muhim bo'g'inlardagi boshqaruv rus tilini biluvchi subyektlar tomonidan amalga oshirildi[3]".

AQSH turkologi A.Bodrogligeti (asli venger) "Chagatay or classical Uzbek" maqolasida o'zbek tilidagi arabcha va forscha o'zlashmalar haqida gapirar ekan, ular hech qachon puristik oqimning qarshiligiga uchramaganligini yozadi[4]. Bizningcha, uning fikrlari jadidlar til islohotidan va Ikkinchi jahon urushidan keyingi holatga mos tushadi. Shu nuqtayi nazardan olim sho'ro voqeligida lug'at tarkibini deislamizatsiya qilish, o'zbek milliy tilini rivojlanish manbalaridan uzib qo'yish, mumtoz merosdan mahrum qilish kabi nozik madaniy siyosat olib borilganligini ta'kidlaydi. Natijada o'zbeklarning til borasidagi islohotlari mumtoz va zamonaviy til o'rtasidagi tafovutni kamaytirish, milliy kelib chiqishlarini islomiy va turkiy manbalarga bog'lashga qaratilayotganini aytib o'tadi[5]. Turli sabablarga ko'ra zo'rama-zo'raki jonli tilga "tiqishtirilgan" ruscha so'zlar faol lug'atdan tushib bormoqda. O'zbek tili lug'at tarkibi esa Markaziy Osiyoning mumtoz turkiy merosidan bahra olmoqda[6]. A.Bodrogligeti A.K.Borovkovning 1959-yilda chop etilgan "Узбекско-русский словарь" lug'ati va o'zbek tilining 1981-yilda chop etilgan ikki jildli izohli lug'atini qiyoslar ekan, o'zbek tilida arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlar "chig'atoy tili" qonuniyatlariga moslashtirib yanada faol ishlatilayotganini ta'kidlaydi. Shuningdek, "o'zbeklarning o'z (ilmiy) ishlarida Chig'atoy adabiy tilini o'z milliy meroslari sifatida qabul qilishlari, uni rivojlantirishlari, manbalarni abadiylashtirishlarini to'g'ri qabul qilishimiz kerak. Chig'atoy tili o'zbek xalqiga lisoniy, madaniy aloqadorligi bilan zamonaviy o'zbek tilining klassik bosqichidir[7]", – deb xulosa yasaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilning o'z ichki qonuniyatlari mavjud bo'lib, u lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liq. Jumladan, tilda yangi so'z yasalishi va so'z o'zlashtirish muayyan ma'noda zid hodisalar bo'lishiga qaramay, ular bir-birini inkor eta olmaydigan va yonma-yon hodisalardir. Mazkur hodisalar til taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida faollashib, almashib boradi. Bizningcha, tilga chet tilidagi so'zlarning kirib kelishini butunlay to'xtatib qo'yish til va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga zid. Bu jarayonlarni tilning yashashga bo'lgan intilishi sifatida ham baholash mumkin. Shunga qaramay, chet tilidagi so'zlarning ko'plab kirib kelishi ham bir qancha xavfli vaziyatlarga olib keladi. Jarayon hozirgi davrda keskin faollashganligi bilan ajralib turadi. Bu tilshunoslardan ijtimoiy hayotga yaqinroq ish tutishni, jamiyatdagi o'zgarishlarning tilga ta'sirini tez va oqilona belgilab beradigan soha – sotsiolingvistikaga e'tibor berishni ham talab qiladi.

O'zbek davlatchiligi tarixi juda uzoqlarga borib taqalsa ham, shu davrgacha hukmron sulolalarning davlat tili borasidagi siyosatini o'rganish amalga oshirilmagan. Mazkur holat o'zbek tili tarixi, sotsiolingvistik tadqiq uchun muhim obyekt bo'lib xizmat qilishi, zaruriy xulosalar va zamonaviy yechimlar olish imkonini beradi.

---

[1] Яруллина А.Г. Заимствованная лексика в «Татарском энциклопедическом словаре»: В русском и татарском изданиях: дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2005. Манба: www.dissercat.com

[2] Hall T.A., Silke H. Loanword nativization in Modern Standard German as evidence for the phonological word // Zeitschrift für Sprachwissenschaft, 2003. 22:56–85.

[3] Рафиев А. 20-йиллар ўзбек тили лексикасидаги таркибий ўзгаришларнинг моҳияти хусусида // Ўзбек тилшунослиги масалалари (Илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 2006. – Б.52.

[4] Bodrogligeti A. Chagatay or classical Uzbek //Turk dilleri arastirmalari. 3 (1993):43-56. *http://turkdilleri.org.*

[5] Bodrogligeti A. Ko'rsatilgan maqola. – P.49.

[6] Bodrogligeti A. The Relevance of Classical Central Asian Turkic Literature to the Understanding of the Cultural Heritage of Central Asia // Beşinci Milletlerarasi Turkoloji Kongresi, Istanbul, 23-28 Eylul, 1985. Tebliğler. II. Turk Edebiyatı. Cilt I . İstanbul: Edebiyat Fakultesi Basımevi, 1985, 7-44.

[7] Bodrogligeti A. Chagatay or classical Uzbek //Turk dilleri arastirmalari. 3 (1993):43-56.P.56. *http://turkdilleri.org.*

Rezyume. Davr, vaziyat til va tilshunoslikdan jamiyatning chaqirig‘iga hozirjavoblik ko‘rsatishni talab qiladi. So‘z o‘zlashtirish yangi so‘z yasalishi va yangi so‘zning jamiyat tomonidan tan olinishidan ko‘ra kam vaqt talab qiladigan, oson usul. Demak, u vaqtni tejashga yordam beradi, yangi so‘z jamiyatning diqqatini tezda o‘ziga jalb qiladi, qiziqish uyg‘otib, ong va tilga singishi yengil kechadi. Til egasi bo‘lgan millatning integratsiyalashuvi osonlashadi. Bundan tashqari o‘zlashma terminlar lakonik (lo‘ndalik) belgiga egaligi bilan ajralib turadi. Maqolada dunyo tilshunosligida so‘z o‘zlashuviga munosabat masalasi, hukumatlarning til siyosatlari yoritilgan.

Resume. The era and situation require language and linguistics to respond to the call of society. Word appropriation is an easy method that takes less time than the creation of a new word and its recognition by society. Therefore, it helps to save time, a new word quickly attracts the attention of society, arouses interest, and is easily absorbed into the mind and language. The integration of the nation that owns the language is facilitated. In addition, borrowed terms are distinguished by their laconic (short) character. The article discusses the issue of attitude to word appropriation in world linguistics, the language policies of governments.

Резюме. Эпоха и ситуация требуют от языка и лингвистики ответа на вызов общества. Апроприация слов – простой метод, требующий меньше времени, чем создание нового слова и его признание обществом. Поэтому она экономит время, новое слово быстро привлекает внимание общества, вызывает интерес и легко усваивается в сознании и языке. Облегчается интеграция нации – владельца языка. Кроме того, заимствованные термины отличаются лаконичностью (краткостью). В статье рассматривается вопрос об отношении к апроприации слов в мировой лингвистике, языковой политике правительств.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

УЙҒУР ХОҚОНЛИГИ ДАВРИ ЁДНОМАЛАРИ ТУРКУМИДАН: ТАРИАТ (ТЭРХ) БИТИГИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Дустмуродов Маъруфжон Мансур ўғли,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Тариат битигини лингвистик жиҳатдан ўрганишда аввало мазкур битигнинг ўзи (матни), ундан сўнг битигтош матнидаги чигал ўринларни ойдинлаштиришга ёрдам бера оладиган хитойча ҳужжатлар ва кейинги даврда тадқиқотчиларнинг Хоқонлик тарихи бўйича олиб борган изланишлари асосий манбалар сифатида кўрилади. Туркий тилнинг энг илк ёзма намунаси сифатида **лингвистик ва филологик** жиҳатдан катта аҳамиятга эга бўлган Тариат битиги Уйғур хоқонлиги тарихини ёритишда Тэс, Шине Усу, Қарабалғасун каби ёдномалар қаторида туради. **Билга хоқон** ва **Култегин** ёдномаларидан кейинги муҳим ёдгорликлардан ҳисобланадиган ушбу битигтош фанда «Тариат», «Тэрҳ», «Эл Этмиш Билга хоқоннинг иккинчи битиги» номлари билан юритилади.

Тариат ёзуви Хонгай тоғининг шимоли-ғарбий томонида, Тэрхин Ғол водийсида, Тэрхин Чаган Нуур кўли яқинида жойлашган. Битигтош 1957 йилда мўғул археологи С. Доршурен томонидан топилган. Унинг бошқа қисмлари 1969 ва 1970 йилларда олиб борилган тадқиқотлар давомида қўлга киритилган, аммо юқори қисми ҳалигача маълум эмас. Битигтош баландликда жойлашган бўлиб, ёдноманинг асосий қисми унинг ўғли томонидан Бўгу Хоқон Эл-Этмиш Билга Хоқон номига